

XII. KORXONA VA OBYEKTLARNI XUSUSIYLASHTIRISH

O'zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligining ma'lumotiga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 199 ta (dastur doirasidagi va dasturdan tashqari obyektlarni qo'shgan holda) korxona va obyektlar (keying o'rirlarda – obyektlar) xususiylashtirildi.

Xususiylashtirishning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra)

	<i>Xususiylashtirilgan korxona va obyektlar soni</i>		<i>Davlat aktivlarini sotishdan olingan tushumlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan foizda</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan foizda</i>
O'zbekiston Respublikasi	199	100,0	1394,3	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14	7,0	24,8	1,8
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	21	10,6	18,1	1,3
Buxoro	5	2,6	9,2	0,7
Jizzax	11	5,5	5,7	0,4
Qashqadaryo	11	5,5	21,3	1,5
Navoiy	6	3,0	11,4	0,8
Namangan	20	10,1	6,3	0,5
Samarqand	11	5,5	21,8	1,6
Surxondaryo	14	7,0	16,6	1,2
Sirdaryo	7	3,5	2,0	0,1
Toshkent	6	3,0	14,4	1,0
Farg'ona	29	14,6	30,3	2,2
Xorazm	34	17,1	31,8	2,3
Toshkent sh.	10	5,0	402,0	28,8
Agentlik markaziy apparati	-	-	778,5	55,8


Hisobot davrida eng ko'p xususiylashtirilgan obyektlar soni Xorazm viloyatida – 34 ta (17,1 %), Farg'ona viloyatida – 29 ta (14,6 %), Andijon viloyatida – 21 ta (10,6 %) va Namangan viloyatida – 20 ta (10,1 %)ni tashkil etdi.

Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasiga mablag'lar tushumi




**Korxona va obyektlarni
xususiylashtirish**

2022- yilning yanvar-iyunida vazirlik va idoralar kesimida xususiylashtirilgan davlat obyektlarining tarkibi (jamiga nisbatan % da)



Xususiylashtirilgan davlat mulki obyektlari tarkibida eng ko'p ulush Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga – 143 ta obyekt (respublika bo'yicha jami xususiylashtirilgan obyektlarning 71,9 % i), mahalliy hokimiyatlarga – 43 ta obyekt (21,6 %), Suv xo'jaligi vazirligiga – 7 ta obyekt (3,5 %) to'g'ri keldi.

2022- yilning yanvar-iyunida davlat mulkini sotishdan tushgan tushumlar 1394,3 mld. so'mni tashkil qildi.



>> Hududlar kesimida davlat mulkini sotishdan tushgan tushumlarning asosiy qismi Agentlik MAga (barcha tushumlarning 55,8 % i), Toshkent shahri (28,8 %), Xorazm (2,3 %), Farg'ona (2,2 %), Qoraqalpog'iston Respublikasida (1,8 %), Samarqand (1,6 %), va Andijon (1,3 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

>> Davlat noturar joy fondidan samarali foydalanish maqsadida, 2022- yilning yanvar-iyunida obyektlarni ijara berish bo'yicha 19004 ta ijara shartnomalari tuzildi.

>> Natijada 2,2 mingdan ortiq yangi ish o'rirlari yaratildi.

>> Davlat mulkini ijara berishdan tushgan tushumlar jami 135,0 mld.so'mni tashkil etdi.

>> Hududlar kesimida davlat mulkini ijara berishdan tushgan tushumlarning asosiy qismi Toshkent shahriga (barcha tushumlarning 45,6 % i), Toshkent (9,4 %), Xorazm (5,5 %), Farg'ona (5,2 %) va Buxoro (4,7 %) viloyatlariga to'g'ri keldi

Korxona va obyektlarni xususiylashtirish

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Davlat tasarrufidan chiqarish – davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga, ommaviy mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

Xususiylashtirish – jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo'lмаган yuridik shaxslarning ommaviy mulk obyektlarini yoki davlat aksiyador jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Davlat ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha savdolar (kim oshdi savdolari) – sotuvchi yoki ko'chmas mulk tashkiloti, shuningdek, kim oshdi savdolari va kim oshdi savdolarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi ixtisoslashgan tashkilot, shu jumladan, elektron shaklda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat ko'chmas mulk obyektlarini sotishni tashkillashtirish.

Xaridor – qonun xujjalariaga muvofiq, davlat mulki bo'lган ko'chmas mulk obyekti (bundan buyon matnda oldi-sotdi shartnomasi deb yuritiladi) uchun sotuvchi bilan oldi-sotdi shartnomasini tuzgan nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxs (O'zbekiston Respublikasi rezidenti yoki nerezidenti).

Investitsiya majburiyati – investor tomonidan investitsiya loyihasida nazarda tutilgan muayyan maqsadlarga erishish uchun olgan majburiyati.

Ijtimoiy majburiyatlar – pul qiymatiga ega bo'lмаган va qonunga zid bo'lмаган shakkarda amalga oshiriladigan davlat mulkini sotishda xaridor tomonidan qabul qilingan majburiyatlar.

Auksion – tanlov asosida xaridor bilan savdoning shakli, bunda unga eng yuqori narxni taklif etgan ishtirokchi davlat mulkini sotish shartnomasini tuzish huquqini oladi. Auksionlar ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin.

Balansda saqlovchi – balansida davlat ko'chmas mulki bo'lган yuridik shaxs.

Boshlang'ich narx – kim oshdi savdosiga ochiq mulkni berish uchun sotuvchi tomonidan belgilangan narx.

Korxona va obyektlarni xususiylashtirish